

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ КАФЕДРАСИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА УСТОЗ-ШОГИРД
МУНОСАБАТЛАРИДА ИННОВАЦИОН
ЁНДАШУВ**

Илмий-назарий ва амалий туплам

Мактабгача таълимда устоз-шогирд муносабатларида инновацион ёндашув. Илмий-назарий ва амалий туплам . “Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2020.-192 с.

Тўпламда мактабгача таълимнинг долзарб муаммолари, устоз-шогирд муносабатларида инновацион ёндашув усул ва формалари ҳақида фикр-мулоҳазалар илмий асосларда ёритилган.

Тўпламда мактабгача таълим тизимида илмий ва амалий фаолият олиб бораётган касб эгалари ва Бухоро давлат университети, мактаб ўқитувчиларининг таълимдаги ўз шогирдлар билан хамкорликда олиб бораётган илмий фаолияти маколаларида ўз аксини топган.

Барча мақолалар мутахассисларнинг эксперт тақризлари асосида баҳоланган.

Бош мұхаррір

Педагогика фанлар номзоди, доцент Г.К.Хасанова

Редакторлар:

Г.Д.Ниязова, М.Б.Шарипова

Такризчилар:

Педагогика фарлари доктори, профессор М.Х.Махмудов

Филология фанлари номзоди, доцент Қ. Р. Тўхсанов

Бухоро давлат университети Мактабгача ва бошлангич таълим факультетининг навбатдан ташқари илмий кенгашида 2020 йил 6 июн тасдиқланди.

конкретного знания, сколько на способности самостоятельно пополнять их, ставить и решать профессиональные задачи. Такое веление времени пришло в противоречие с традиционной системой обучения или репродуктивным типом обучения. Передача готовых знаний и алгоритмов для действия не обеспечивает формирование творческих возможностей и тех, кто учится, и тех, кто учит. В результате авторитарного преподавания обучаемые приобретают знание фактологического материала, но не в состоянии сформировать навыки самостоятельного, критического мышления, умения решать задачи аналитического и проблемного характера, умения самостоятельной постановки новых задач, определения оптимальных, нестандартных приемов их решения и творческого использования полученных знаний на практике. Но сегодня, как никогда, именно эти качества востребованы. На наш взгляд, для построения нового типа образования необходима смена самой парадигмы с информационной на смысловую. Лишь в этом случае обучения может ставить своей главной задачей развития личности всех субъектов педагогического процесса. Такие особенности личности, как способность быть автором, способность к рефлексии, возникновение и развитие толерантных характеристик сознания и способности человека к диалогу – эти особенности личности как активного субъекта деятельности могут формироваться в условиях личностно-ориентированного обучения и воспитания на основе педагогики сотрудничества. Главная цель такого учебного процесса – обеспечить рост творческих способностей и возможностей каждого учащегося. А для этого сам педагог должен быть творческой личностью, иметь опыт творческой, авторской школы.

**МАКТАБГАЧ ТА’ЛИМ МУАССАСALARIDA IJODIY
QOBILIYATLARNI O’STIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O’RNI**

*Eshova Dilbar Shonazarovna - BuxDU Maktabgacha ta’lim kafedrasini
o’qituvchisi*

Аннотация: *Ushbu maqolada muktabgacha ta'linda innovatsion yondashuv haqida ma'lumot berilgan.*

Аннотация: *В этой статье изложены проблемы инновационного подхода к обучению учителя дошкольной образованию.*

Annotation: *This article informed about the innovative presentation in preschool children.*

Kalit so'zlar: *Muktabgacha ta'lif, sahna asari, sahnalashtirish, milliy an'analar, badiiy asar, ijodkorlik, ertak, hikoya, faollik, ijodiy qobiliyat.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, сценическое искусство, подготовка к сцене, национальные традиции, художественная работа, креативность, сказка, история, активность, творческая способность.*

Keys words: *preschool education, stage art, staging, national traditions, artistic work, creativity, fair tale, story, activity , creative ability.*

Muktabgacha ta'lif tizimida sahnalashtirish faoliyatining dolzarbligi shundaki, bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Muktabgacha ta'lif muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'naliishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejulashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi.

Sahnalashtirish va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning maqsadi har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lif bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim muassasasida badiiy asarni sahnalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki ijodiy qobiliyatlar va bolalar harakatlarini boshqara olish, sahna asarlari orqali ma’naviy dunyoqarashni shakllantiriladi. «Ijodkorlik» sohasidagi o’quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetgandan so’ng 6-7 yoshli bola:

- san’at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- san’atning muayyan turini afzal ko’rishishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko’nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o’z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalilaniladi;
- Insonning dunyoni o’zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi. Sahnalashtirish o‘yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o’z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o‘yinlarida bolalar o‘yin jarayoniga kirib boradilar, voqeа va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo‘lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o‘zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug’at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Mazmunining g’oyaviy-ma’naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.

3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko‘p bo‘lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo‘lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko‘p bo‘lishi.
5. Ifodali o‘qishga mos bo‘lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog’langan bo‘lmog’i zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan, «Sholg’om», «Zumrad va Qimmat», «Bo‘g’irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo‘g’irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta qo‘yib berish, sahnada ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o‘yinlari qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to‘g’ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o‘yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatları, intilishlarini hisobga olib boradilar. O‘yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag’batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechaeva o‘z tadqiqotlarida qurish-yasash o‘yinlarining o‘ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib bergenlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar kabi turli ko‘rinishdagi ko‘rgazmali qo‘llanmalarni chop etmoqdalar.

2. Sahnalashtirilgan o‘yinlar ijodiy o‘yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o‘yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg’unligi, bolalarning mustaqillik va o‘z-o‘zini uysushtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o‘yin badiiy asar asosida

ko‘riladi: o‘yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko‘ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o‘yin bolalarning eshitgan asar yoki ertagidan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so‘zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, ammo unga o‘yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday o‘yinda bola o‘zini o‘sha asardagi qahramon o‘rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so‘zlab berish boladagi hayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo‘lgan ijobjiy sifatlarni egallahsga intiladi. Sahnalashtirilgan o‘yinda badiiy asarning g’oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajarishiga, o‘yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so‘zlarining yod olinishiga asoslangan bo‘lib, bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan o‘yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

I-bosqich. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko‘p bo‘lishi kerak; 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim; 3) asar ifodali o‘qishga mos bo‘lishi kerak; 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo‘lishi zarur; 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

II-bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o‘qib berish.

III bosqich. Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o‘qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

IV bosqich. O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to‘g’ri amalga oshirish.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg’ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Ertak va hikoyalarni bolalar ko‘pincha o‘zlarining ijodiy rolli o‘yinlarida sahnalashtiradilar, bu o‘yinlarda tulki, sichqon, xo‘roz, quyon kabi personajlarni o‘yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she’r, ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari mana shunday o‘rganiladi.

Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo‘lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo‘lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg’om», «Bo‘g’irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklargina olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she’rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg’ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

MUNDARIJA

1. Қ.Р. Тұхсанов, Муродова Саодат.Инсон камолоти ва бадий адабиёт....5.	
2. Г.К. Хасанова, Ш.Р.Раджабова.Методы исследования в методике преподавания русского языка.....10	
3. Г.К. Хасанова, Ҳ.У.Махмудова. Применение современных методов педагогической диагностики в дошкольных образовательных организациях.....15.	
4. М.М Нигматова, Э.К.Курбанова. Методические основы развития дошкольников.....19.	
5. С.С. Ходжаева, Ш.Хайдарова.Игровая деятельность в подготовке детей к школе дошкольного возраста.....24.	
6. Г.А. Камилова, Қ.Н.Насимова.Халқ топишмоқларини ўргатища экологик тарбиянинг ўрни ва аҳамияти.....29	
7. G.A. Kamilova, N.N.Jabborova. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarhi qo'llashning nazariy asoslari.....34	
8. М.Т.Акрамова,Г.О. Зайнуллаева. Разнообразные теоретические и методические аспекты формирования творческой личности учителя.....37	
9. D.Sh.Eshova, G'.Ergasheva.Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodiу qobiliyatlarni o'stirishda tasviriy faoliyatning o'rni.....41	
10.С.Д. Ниязова, Н.Мирхаджаева.Учение как субъектная характеристика обучения.....47	
11.Д.Ш.Мирзаева, В.Нуриддинова. Использование игр для развития детей дошкольного возраста.....53	
12. Г.Д.Ниязова, Н.Икрамова. Проблеме индивидуального подхода в воспитании детей.....58.	
13. Г.Д.Ниязова, Р.Тагиева.Педагогическая система м. Монтессори.....62	
14. С.Д. Ниязова, Н.Турсунова. Развитие творческой активности дошкольников в самостоятельной театрализованной деятельности.....68	
15. Д.Ш.Мирзаева, Д.Рахматова.Развитие креативных способностей детей младшего возраста.....74	
16. Ф.Ф.Нуруллаев, Ф.Ж.Махусудова. Дидактические игры с детьми старшего дошкольного возраста.....80	